

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUR O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohob Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И ЛИЗИНГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	324
Исомов Б.С.	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО МОДУЛЯ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА.....	330
Ботиров Бозорбек, Тураев Фарходжон	
KAM RESURSLI TILLARDAGI ILMIY JURNALLAR UCHUN METAMA'LUMOTLARNI AVTOMATIK EKSTRAKSIYA QILISH VOSITASI.....	336
Rashid Turgunbaev	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНА.....	342
Дадажанов Арафатали Комилжанович	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	348
Yorqin Khudoyiberdiev	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	352
Yorqin Khudoyiberdiev	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK TAHLIL QILISH	360
Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI AUDIT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI	365
To'rayeva Farida Rustam qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL BOZORI VOSITALARI ORQALI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	369
Qurbonov Javlonbek, Farxodova Aziza	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	374
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA DAROMADLARINING PROGNOZI	378
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	385
Raximov Zafar Komilovich	



XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Raximov Zafar Komilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Raqqamli iqtisodiyot” kafedrası DSc mustaqil izlanuvchisi

Email: zafarrahimov022@gmail.com

ORCID: [0009-0009-7825-6093](https://orcid.org/0009-0009-7825-6093)

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish va aholi farovonligini ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari haqida nazariy hamda amaliy yondashuvlar yoritib berilgan. Ma'lumotlar muallifning kuzatuvlari va adabiyotlar tahlili asosida tuzildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, aholi farovonligi, xizmatlar sohasi, metodologiya, globallashtirish, strategiya, inson salohiyati, islohot.

Аннотация: В статье освещены теоретические и практические подходы к организационно-экономическим механизмам государственной поддержки повышения эффективности сферы услуг и обеспечения благосостояния населения. Данные были составлены на основе наблюдений автора и анализа литературы.

Ключевые слова: Социально-экономическая политика, благосостояние населения, сфера услуг, методология, глобализация, стратегия, человеческий потенциал, реформы.

Abstract: The article highlights theoretical and practical approaches to the organizational and economic mechanisms of state support for improving the efficiency of the service sector and ensuring the well-being of the population. The data was compiled on the basis of the author's observations and literature analysis.

Keywords: Socio-economic policy, population welfare, service sector, methodology, globalization, strategy, human potential, reform.

KIRISH

Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, aholi bandligini kengaytirish, daromad manbalarini ko'paytirish hamda turmush sifatini yaxshilashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlarining o'zi, biroq, xizmatlarning barcha hududlar va aholi qatlamlari uchun bir xil darajada mavjudligi, sifati va narx maqbulligini ta'minlay olmaydi. Ayniqsa, infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan hududlarda, ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlarda va boshlang'ich bosqichdagi tadbirkorlik loyihalarida davlat tomonidan muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va moliyaviy ko'mak ko'rsatish zarurati yuzaga keladi.

Davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash alohida imtiyoz yoki moliyaviy mablag' ajratish bilangina cheklanmaydi – u xizmatlar bozorini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy vositalar, huquqiy me'yorlar, moliyalashtirish manbalari, hududiy dasturlar va nazorat-baholash tartiblarining o'zaro bog'langan tizimini ifodalaydi. Xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari deganda, shu asosda, davlat organlari tomonidan sohani tartibga solish, rag'batlantirish, resurslar bilan ta'minlash va erishilgan natijalarni baholashda qo'llaniladigan usul, vosita va institutlar majmui tushuniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda bir guruh olimlar xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish va aholi farovonligini

ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari mavzusi doirasida o'z ilmiy qarashlarini bayon qilishgan, bularga: F.Kotler, G.Armsrong, Dj.Sonders, V.Vong, M.Mak-Donald, E.Peyn, O.Y.Goyxman, A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus, McConnell, N.Gregory Mankiw, Y.A.Abdullyaev, M.M.Muxammedov, M.Q.Pardayev, Q.D.Mirzayev, L.I.Galiyaxmetova, Y.N.Yeremina, F.U.Tursunov, K.B.Urazov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida atroflicha yoritib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduktsiya, ilmiy abstraktlash, tizimli va qiyosiy tahlil, monografik hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Ushbu usullar xizmatlar sohasi samaradorligini oshirish va aholi farovonligini ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining mohiyati, tavsifi va tasniflanishining nazariy jihatlarini yoritib berishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining shakllanishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarori muhim o'rin tutadi. Mazkur qaror bilan 2021–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari va "yo'l xaritasi" tasdiqlanib, sohadagi loyihalarni kreditlash, aholining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish hamda hududlarda xizmatlar turlarini kengaytirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Davlat qo'llab-quvvatlashining keyingi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qarori bilan bog'liq. Ushbu qaror xizmatlar sohasini hududlarning iqtisodiy salohiyati, joylashuvi va ixtisoslashuvidan kelib chiqib rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va soliq imtiyozlari berish, mehmonxona, savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar hamda turistik xizmatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

So'nggi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatda xizmatlar sohasini rivojlantirish maqsadlari, tadbirkorlik subyektlariga beriladigan imtiyozlar, moliyaviy resurslar, xizmatlarning ommabopligini oshirish va qaror ijrosini nazorat qilish yo'nalishlari belgilangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuniy tahlili davlat tomonidan xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash faqat kredit yoki soliq imtiyozlari bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Amaldagi tizim dasturiy-maqsadli boshqaruv, moliyaviy-kredit rag'batlantirish, soliq va bojxona imtiyozlari, infratuzilma moliyaviy ko'mak, hududiy ixtisoslashtirish, xususiy sektorni jalb qilish, raqamlashtirish hamda bandlikni qo'llab-quvvatlash vositalarini o'z ichiga oladi. Shu asosda xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari 1-rasmda tizimlashtirildi.

1-rasmda xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy mexanizmi normativ-huquqiy asoslar, boshqaruv subyektlari, tashkiliy vositalar hamda aholi farovonligiga yo'naltirilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlik asosida tizimlashtirilgan. Bu mexanizm davlat siyosatida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, tegishli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, hududiy dasturlar ijrosini tashkil etish va erishilgan natijalarni baholash jarayonlarini qamrab oladi.


Yuqorida tahlil qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida O'zbekistonda xizmatlar sohasini boshqarishning dasturiy-maqsadli va hududiy yo'nalishlari bosqichma-bosqich shakllantirildi. Bu hujjatlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar, hududiy dasturlar, «yo'l xaritalari», mas'ul ijrochilar, monitoring tartibi va xususiy sektorni jalb qilish vazifalari belgilangan. Normativ-huquqiy asoslar, demak, tashkiliy mexanizmning shakllanishi va amalda ishlashini tartibga soluvchi boshlang'ich bo'g'in hisoblanadi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan, xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy mexanizmi davlat boshqaruvi organlari, hududiy hokimliklar, moliya institutlari, tadbirkorlik tashkilotlari va xususiy sektor faoliyatini yagona maqsad asosida muvofiqlashtiruvchi usul hamda vositalar majmuini ifodalaydi. Uning asosiy vazifasi xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan maqsadlarni aniq vazifalar, amalga oshirish muddatlari, mas'ul ijrochilar va nazorat ko'rsatkichlari bilan bog'lashdan iborat.

Bu jarayonda Vazirlar Mahkamasi xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha umumiy siyosat va ustuvor vazifalarning ijrosini muvofiqlashtiradi. Tegishli vazirlik va idoralar alohida xizmat yo'nalishlari bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tuman hokimliklari esa hududiy ehtiyojlarni



aniqlash, xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirish, loyihalarni amalga oshirish va mahalliy muammolarni hal etishda asosiy bo'g'in sifatida ishtirok etadi (1-rasm).



1-rasm. Xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy mexanizmi

Tijorat banklarining bu tizimdagi ishtiroki faqat loyihalarni moliyalashtirish bilan cheklanmaydi – ular istiqbolli loyihalarni tanlash, tadbirkorlarning biznes tashabbuslarini baholash va loyihalarni amalga oshirish jarayonida maslahat ko'rsatish vazifalarini ham bajaradi. Savdo-sanoat palatasi tadbirkorlarning manfaatlarini ifodalash, ularning muammolarini tegishli davlat organlariga yetkazish hamda huquqiy va amaliy ko'mak berishda ishtirok etadi. Xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilari esa xizmatlarni tashkil etuvchi va aholiga bevosita yetkazib beruvchi asosiy subyektlar hisoblanadi.

Davlat va hududiy dasturlar, maqsadli ko'rsatkichlar, "yo'l xaritalari", mas'ul ijrochilarni belgilash, hududlarni xizmat turlari bo'yicha ixtisoslashtirish, idoralararo muvofiqlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish va raqamli monitoring tashkiliy mexanizmning asosiy vositalarini tashkil etadi. Bu vositalarning har biri alohida vazifani bajarsa-da, ular o'zaro bog'langan holda qo'llanilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Jumladan, maqsadli ko'rsatkichlar xizmatlar sohasida erishilishi lozim bo'lgan natijalarni aniqlab beradi. "Yo'l xaritalari" belgilangan maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar, muddatlar va mas'ul ijrochilarni bir tizimga keltiradi. Hududiy ixtisoslashtirish har bir hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy imkoniyatlariga mos xizmat turlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Mas'ul ijrochilarni belgilash esa vazifalarning bajarilishi va natijalar uchun javobgarlikni aniqlashtiradi.

Idoralararo muvofiqlashtirish xizmatlar sohasiga aloqador turli vazirlik, idora, hokimlik va moliya institutlari faoliyatidagi takrorlanishlarni kamaytiradi. Davlat-xususiy sheriklik davlatning tashkiliy imkoniyatlari bilan xususiy sektorning moliyaviy resurslari va boshqaruv tajribasini birlashtirishga xizmat qiladi. Litsenziya va ruxsat berish tartiblarining soddalashtirilishi esa tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun zarur vaqt va ma'muriy xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

Raqamli monitoring xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlari ijrosini muntazam kuzatish, hududlar faoliyatini taqqoslash va mavjud muammolarni tezkor aniqlash imkonini beradi. Monitoring tizimi, biroq, faqat tashkil etilgan obyektlar, ajratilgan mablag'lar yoki yaratilgan ish o'rinlari sonini qayd etish bilan cheklanmasligi kerak: unda xizmatlarning sifati, narx maqbulligi, hududiy mavjudligi, aholi qoniqishi va xizmatlardan foydalanishga sarflanadigan vaqt kabi ko'rsatkichlar ham hisobga olinishi zarur.

Tashkiliy mexanizmning xizmatlar sohasi samaradorligiga ta'siri boshqaruv vazifalarining aniq taqsimlanishi, hududiy loyihalarning muvofiqlashtirilishi, xususiy sektor tashabbuslarining qo'llab-quvvatlanishi va ma'muriy jarayonlarning soddalashtirilishida namoyon bo'ladi. Bu esa xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini tashkil etish, yangi xizmat turlarini joriy qilish va xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Bu natijalar aholi farovonligiga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish loyihalarining

hududlarda tashkil etilishi yangi ish o'rinlari va daromad manbalarining paydo bo'lishiga xizmat qiladi. Xususi sektor ishtirokining kengayishi xizmatlar taklifini ko'paytirib, raqobat muhitini yaxshilaydi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, savdo va maishiy xizmatlarning aholiga yaqin hududlarda tashkil etilishi xizmatlardan foydalanish uchun sarflanadigan vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Raqamlashtirish esa xizmatlardan foydalanishning tezkorligi va qulayligini oshiradi.

Tashkiliy mexanizmning hozirgi holatini, shu bilan birga, to'liq takomillashgan deb baholab bo'lmaydi. Uning normativ-huquqiy va dasturiy asoslari shakllangan bo'lsa-da, hududiy dasturlarning bajarilishi, idoralararo axborot almashinuvi, mahalliy boshqaruv organlarining tashabbuskorligi va yakuniy natijalarni baholash darajasi hududlar bo'yicha farqlanadi. Ayrim hollarda asosiy e'tibor xizmatlarning sifati va aholining ehtiyojlariga emas, bajarilgan chora-tadbirlarning miqdoriy ko'rsatkichlariga qaratiladi.


Kelgusi davrda, aynan shu sababdan, hududiy dasturlarni aholining real ehtiyojlari asosida shakllantirish, boshqaruv subyektlarining vazifa va javobgarligini yanada aniqlashtirish, idoralararo ma'lumot almashinuvini yagona raqamli tizimga birlashtirish hamda monitoring ko'rsatkichlariga xizmatlar sifati, narx maqbulligi, hududiy qamrov va aholi qoniqligini kiritish zarur. Bu tashkiliy qo'llab-quvvatlash natijalarini amalga oshirilgan tadbirlar soni bilan emas, aholining hayot sifati va farovonligidagi real o'zgarishlar bilan baholash imkonini beradi.

Tashkiliy mexanizm davlat siyosatida belgilangan vazifalarni muvofiqlashtirilgan amaliy faoliyatga aylantiradi. Iqtisodiy mexanizm esa bu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy, soliq, mulkiy va rag'batlantiruvchi vositalarni qamrab oladi.

2-rasmda xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy tizimi, uning xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri hamda yakuniy iqtisodiy va ijtimoiy natijalari tizimlashtirilgan. Ushbu tizim tashkiliy asoslar doirasida belgilangan maqsad va vazifalarni moliyaviy resurslar, soliq va bojxona rag'batlari, mulkiy-infratuzilmaviy ko'mak hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash vositalari orqali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan, xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiya faolligini rag'batlantirish, faoliyat xarajatlarini kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning iqtisodiy maqbulligini oshirishga yo'naltirilgan vositalar majmuini ifodalaydi. Uning asosiy maqsadi xizmatlar hajmini ko'paytirish bilangina cheklanmay, soha samaradorligini oshirish, raqobat muhitini rivojlantirish, bandlik va daromadlarni ko'paytirish orqali aholi farovonligini yuksaltirishdan iborat.

Bu tizimning muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri moliyaviy-kredit qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Imtiyozli va maqsadli kreditlar, mikrokreditlar, foiz xarajatlarini qoplash, kredit kafolatlari hamda lizing xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning boshlang'ich kapitalga bo'lgan ehtiyojini qondirish imkonini beradi. Mazkur vositalar yangi korxonalarni tashkil etish, mavjud faoliyatni kengaytirish, zamonaviy uskunalar xarid qilish va raqamli texnologiyalarni joriy etishda alohida ahamiyatga ega (2-rasm).



2-rasm. Xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy mexanizmining tarkibiy tuzilishi va aholi



farovonligiga ta'siri¹

Shu bilan birga, moliyaviy resurslar ajratilishining o'zi xizmatlar sohasi samaradorligi oshganini to'liq ifodalaymaydi. Moliyalashtirilgan loyihalarning faoliyat davomiyligi, daromadliligi, bir korxonaga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi, yaratilgan ish o'rinlarining barqarorligi va xizmatlar sifati ham hisobga olinishi zarur. Aks holda, iqtisodiy ko'mak natijalari ajratilgan kreditlar yoki tashkil etilgan loyihalar soni bilan cheklanib qoladi, ularning real iqtisodiy va ijtimoiy samarasi esa yetarlicha baholanmay qolaveradi.

Soliq va bojxona imtiyozlari xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rag'batlantirish vositalaridir. Soliq stavkalarining pasaytirilishi, yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha yengilliklar hamda zamonaviy uskunalarni olib kirishda bojxona preferensiyalarining qo'llanilishi korxonalar ixtiyorida qo'shimcha moliyaviy resurslarning qolishiga imkon yaratadi. Ushbu mablag'lar xizmat turlarini kengaytirish, texnologik yangilanish, xodimlar malakasini oshirish va xizmat sifatini yaxshilashga yo'naltirilishi mumkin.

Biroq, soliq va bojxona imtiyozlari barcha korxonalarda bir xil natija bermaydi. Ularning samaradorligi korxonaning faoliyat ko'lami, boshqaruv salohiyati, hududiy joylashuvi, xizmatlarga bo'lgan talab va bozor raqobatining holatiga bog'liq. Shu sababli, bunday imtiyozlarni faqat korxonaning faoliyat turiga qarab emas, balki yaratilgan qo'shilgan qiymat, rasmiy bandlik, ish haqi, xizmat sifati va hududiy ahamiyat kabi natijalar bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

Mulkiy va infratuzilmaviy ko'mak esa qo'llab-quvvatlash tizimining xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlash va yuritish xarajatlarini kamaytiruvchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Yer uchastkalarini ajratish, davlat mulkidan foydalanish, bino va inshootlarni taqdim etish hamda infratuzilma xarajatlarini moliyalashtirish tadbirkorlarning boshlang'ich xarajatlarini kamaytiradi. Elektr energiyasi, suv, transport, aloqa va internet tarmoqlarining mavjudligi esa xizmat ko'rsatish obyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Mazkur imkoniyatlar hududlar bo'yicha bir xil shakllanmagan. Markaziy shaharlar va iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda moliyaviy institutlar, infratuzilma hamda to'lovga qodir talabning rivojlanganligi xizmat loyihalarining tezroq amalga oshirilishiga yordam beradi. Qishloq va chekka hududlarda esa boshqacha manzara kuzatiladi – infratuzilmaning yetarli emasligi, bozor hajmining cheklanganligi va investitsiya tavakkalchiligidan yuqoriligi xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bois, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash vositalarini hududlarning rivojlanganlik darajasi va aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojiga qarab tabaqalashtirish zarur.

Bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish qo'llab-quvvatlash tizimining aholi farovonligiga bevosita yaqin bo'lgan yo'nalishidir. Kichik va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, o'zini o'zi band qilish uchun sharoit yaratish, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash aholining iqtisodiy faolligini oshiradi. Xizmatlar sohasi ko'plab yo'nalishlarda nisbatan kam boshlang'ich kapital talab qilishi sababli yoshlar, ayollar va mehnat bozoriga yangi kirib kelayotgan aholi qatlamlari uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Bandlikni baholashda faqat yaratilgan ish o'rinlari soniga tayanish yetarli emas. Ish o'rinlarining barqarorligi, rasmiylashtirilganligi, ish haqi miqdori, mehnat sharoiti, ijtimoiy himoya va mehnat unumdorligi aholi farovonligiga ta'sir qiluvchi muhim ko'rsatkichlardir. Past unumdorlik va beqaror daromadga asoslangan bandlik ish o'rinlari sonini oshirishi mumkin, biroq aholining uzoq muddatli farovonligini sezilarli darajada yuksaltirmaydi.

Iqtisodiy vositalarning izchil qo'llanilishi yangi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tashkil etilishi, mavjud subyektlar faoliyatining kengayishi va modernizatsiya qilinishi, xizmatlar hajmi hamda turlarining ko'payishiga olib keladi. Bozorga yangi subyektlarning kirishi raqobat muhitini kuchaytirib, korxonalarni xizmat sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va iste'molchilar talabiga moslashishga undaydi. Natijada investitsiyalar hajmi, korxonalar daromadliligi, budjet tushumlari va hududiy iqtisodiy faollikning oshishi uchun shart-sharoit yaratiladi.

Tadqiqotga ko'ra, xizmatlar sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi hozirgi vaqtda o'rta-yuqori darajada shakllangan. Moliyaviy-kredit, soliq, bojxona, mulkiy va infratuzilmaviy rag'batlantirish vositalari amaliyotga joriy qilingan va ularning qo'llanish doirasi kengaymoqda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatining hududlar va tadbirkorlik subyektlari bo'yicha bir xil emasligi, davlat ko'magining unumdorlikka ta'sirini baholashdagi kamchiliklar hamda yakuniy ijtimoiy natijalarni hisobga olish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi mazkur tizim samaradorligini cheklamoqda.

Har bir mezon bo'yicha amal qilish darajasi indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$I_j = \frac{N_1 \times 1,0 + N_2 \times 0,6 + N_3 \times 0,2 + N_4 \times 0}{N} \times 100$$

bunda: – baholash mezonini bo'yicha amal qilish darajasi indeksi; – tegishli javob variantlarini tanlagan

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

respondentlar soni; N – jami respondentlar soni.

Indeks qiymatlarini talqin qilishda 0–20 ball – juda past, 20,1–40 ball – past, 40,1–60 ball – oʻrta, 60,1–80 ball – yuqori, 80,1–100 ball – juda yuqori daraja sifatida qabul qilindi. Mazkur usul tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning kuchli hamda nisbatan zaif boʻgʻinlarini aniqlash imkonini beradi.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar boʻyicha olingan natijalarni umumlashtirish asosida tashkiliy mexanizmning oʻrtacha indeksi 63,65 ball, iqtisodiy mexanizmning oʻrtacha indeksi 60,36 ballni tashkil etganligi aniqlandi. Har ikki yoʻnalish boʻyicha hisoblangan umumiy indeks 62,01 ballga teng boʻlib, qabul qilingan baholash mezonlariga koʻra xizmatlar sohasini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yuqori darajada amal qilayotganini koʻrsatadi. Tashkiliy mexanizmning iqtisodiy mexanizmga nisbatan 3,29 ball yuqori baholanishi davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlashning dasturiy va boshqaruv jihatlarini moliyaviy-iqtisodiy vositalarning amaliy mavjudligi va foydalanish imkoniyatlariga nisbatan yaxshiroq shakllanganligini koʻrsatadi.

Biroq, umumiy indeksning yuqori darajada shakllanganligi tizimning barcha elementlari bir xil samaradorlikda ishlayotganini anglatmaydi. Xususan, aholi farovonligiga yakuniy taʼsirni baholash, hududiy ehtiyojlarni dasturlarga integratsiya qilish, subsidiya va kompensatsiyalarning manzilliligi, infratuzilmaviy hamda mulkiy koʻmakdan foydalanish imkoniyatlari nisbatan past indekslarga ega boʻlib, mazkur yoʻnalishlar davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy zaxiralari sifatida namoyon boʻlmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil xizmatlari sohasini davlat qoʻllab-quvvatlaydi. Hozirgi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarda tashkiliy va iqtisodiy vositalar bir-biriga toʻliq mos kelmaydi. Tashkiliy yoʻnalishda normativ-huquqiy asoslar, davlat va hududiy dasturlar, boshqaruv vakolatlarining taqsimlanishi, litsenziya va ruxsat berish tartiblari soddalashtirilgan. Bu elementlar nisbatan yuqori darajada shakllangan. Iqtisodiy yoʻnalishda soliq va bojxona imtiyozlari, tadbirkorlikni ragʻbatlantirish, maqsadli kreditlash vositalari ijobiy baholangan. Biroq, subsidiya va kompensatsiyalarning manzilliligi, infratuzilmaviy va mulkiy koʻmak, baʼzi moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, hozirgi tizimning asosiy muammosi davlat qoʻllab-quvvatlash vositalarining yoʻqligida emas. Muammo bu vositalar hududlar va xizmat koʻrsatuvchi subyektlar ehtiyojlariga mos kelmasligida. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni baholash mexanizmi ham yetarli shakllanmagan. Xususan, xizmatlar sifati, narx maqbulligi, hududiy mavjudligi va aholi qoniqishini baholashda 52,00 ballik eng past indeks qayd etildi. Bu natija davlat qoʻllab-quvvatlashini faqat ajratilgan mablagʻlar, qurilgan obyektlar yoki bajarilgan tadbirlar soni bilan baholash yetarli emasligini koʻrsatadi. Baholashda xizmatlar sohasidagi miqdoriy oʻzgarishlar aholi farovonligiga qanday haqiqiy natija berayotganini ham koʻrib chiqish kerak.

Bizning fikrimizcha, davlat qoʻllab-quvvatlashning tashkiliy va iqtisodiy usullarini samarali qilish uchun “resurs ajratish – xizmat koʻrsatuvchi subyekt faoliyati – xizmat samaradorligi – aholi uchun natija” oʻrtasidagi bogʻliqlikni kuchaytirish kerak. Resurs ajratish, xizmat koʻrsatuvchi subyekt faoliyati, xizmat samaradorligi, aholi uchun natija har biri bir-biriga bogʻliq. Bogʻliqlik muhim. Davlat yordamini oʻlchashda kredit, subsidiyalar yoki imtiyozlar miqdori emas, balki yaratilgan barqaror ish oʻrinlari, xizmat koʻrsatuvchi subyektlarning faoliyat samaradorligi, xizmatlarning hududiy mavjudligi, sifati, narxi hamda aholi daromadi va farovonlikdagi oʻzgarishlarni koʻramiz.

Shu tahlil koʻrsatdi: davlat qoʻllab-quvvatlayotgan xizmatlar sohasining tashkiliy va iqtisodiy asoslari bor, lekin elementlar orasida muvozanat yetarli emas. Bu tafovutlar xizmatlar samaradorligi hamda aholi farovonligi oʻrtasidagi bogʻlanishni chuqur baholashni talab qiladi. Resurs va imkoniyatlarni hududga mos ravishda guruhlab, bir-biriga bogʻliq mezonlar bilan boshqarish kerak.

Foydalangan adabiyotlar roʻyxati:

1. Котлер Ф., Армстронг Г., Сондерс Дж., Вонг В. Основы маркетинга. – М., СПб., К.: Издат. дом «Вильямс», 1999. – 718 с.
2. Мак-Дональд М., Пэйн Э. Сфера услуг. Полное пошаговое руководство по маркетинговому планированию. – М.: КноРус, 2009. – 448 с.
3. Гойхман О.Я. К вопросу формирования терминологии сферы сервиса // Теоретические и прикладные проблемы сервиса. – 2007. №1. – С., 31-34.
4. A.Paul, Samuelson, D.William Nordhaus. Economics. 19th Edition. McGraw-Hill Companies. USA. 2009. – 744 p.
5. McConnell, Brue. Economics. 19th edition. McGraw-hill/Irwin, USA, 2014. – 984 p.; N.Gregory Mankiw. Principles of Economics, 7th edition. Amazon, USA, 2014. – 880 p.
6. Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021, 186 б.
7. Пардаев М.Қ. Хизматлар кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. –Т.: Наврўз, 2014. – 264.



8. Мирзаев Қ.Д., Султонов Ш.А. ва бошқалар Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик. Самарқанд. СамИСИ, 2022. – 251 б.
9. Л.И.Галияхметова Благополучие, субъективное благополучие, удовлетворённость жизнью: проблема взаимосвязи. – Вестник Башкирского университета. 2015. Т. 20.
10. Е.Н.Уремина Личностные характеристики как предикторы субъективного благополучия личности с разной ситуацией трудовой занятости. Изв. Саратов. Ун-та. Нов. Сер. Сер. Акмеология образование. Психология развития. 2017. Т. 6, вып. 1 (21).
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi 2023-yil ma'lumotlari.
12. Shanazarov F. Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini rivojlantirishdagi o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir mexanizmlar // "Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, 2026. DOI: 10.60078/2026-vol1-issT1-13.
13. Raximov Z. Ijtimoiy xizmatlarning aholi farovonligini ta'minlashdagi roli // Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. – 2025. – Jild 2. – №3. – B. 13–17. DOI: 10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss3-pp13-17.
14. <https://lex.uz/> – Qonunchilik ma'lumotlari milliy elektron bazasi.
15. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi sayti.
16. www.jmbm.uz – Journal of marketing, business and management (JMBM).
17. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/> – Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy-ommabop jurnali.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100